

Usarova Laylo Ibragimovna:

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

Quchqorova Sevinch Iskandarovna:

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti.

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Bu asarda ikkinchi jahon urushi yillarda urush tufayli qiynalgan qishloq aholisining taqdiri, urushga ketgan farzandlari uchun kuyingan onaizor obrazlari, xiyontga uchragan qalb egalarini his tuyg'ulari tasvirlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'tkir Hoshimov, roman, urush, xiyonat, obraz, muhabbat, qiyinchilik.*

Taniqli va sevimli yozuvchilarimizdan biri O'tkir Hoshimov. Adib o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'chmas o'rniga ega buyuk darg'alardan biri, nodir asarlari bilan kitobxonlar qalbining tub-tubigacha kirib bora olgan yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. O'tkiz Hoshimov biz kitobxonlarga ko'plab nodir asarlar meros qilib qoldirgan. Ana shunday nodir asarlardan biri "Ikki eshik orasi" asari hisoblanadi. Bu asarda ikkinchi jahon urushi yillarda sodir bo'lgan voqealar, urush sabab qiynalgan xalq taqdiri, urushning har bir oilaga yetkazgan musibatlari, urush sabab ayrilgan qalb egalari, urushda vafot etgan o'zbek o'g'lanlarining oila a'zolarining qalb kechinmalari, onalar farzandi do'gida kuyib qanchalar ko'p ajob chekkanligi, ayyollarimizga qanchalar qiyin bo'lmasin bu qiyinchiliklarga sabr qilganliklari tasvirlab berilgan. Asardagi voqealar Orif Oqsoqol, Husan Duma, Robiya, Ra'no, Qora amma, Muzaffar, Kimsan, Umar Zakunchi obrazlari orqali asarning asosiy voqealari yoritib berilgan. Asar yetti qism, qirq yetti bobdan iborat

bo'lib. Muqaddimasidayoq kitobxonni o'ziga jalb qiladigan. Mana shunday fikrlar berilgan. Rost bilan yolg'onning orasi - to'rt enlik", degan gap bor. Qiziq nega endi oz emas ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi - to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon... Maqsad - shu.

Ko'plari ban gaplashganman. Ba'zilarning o'zi bilan , ba'zilarning... Ruhi bilan... Ba'zilari nimani gapirgan bo'lsa, shuni qo'g'ozga tushurdim. Ba'zilari nimani gapirganini emas, nimani o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. Tilimning uchida turgan yana biz andishani aytmasam bo'lmaydi. Ehtimol, siz bu kitobda fojia ko'payib ketmadimikin, degan xayolga borasizlar, nachora, avvalo hayot faqat bayramlardan iborat emas. Ikkinchi jahon urushi ellik millon odamning uvoliga qoldi. [ikki eshik orasi 2019.3b]. Bu jummalarni kitob muqaddimasida o'qigan kitobxonni albatta o'ziga jalb qila oladi. Albatta, bu asardagi voqealarga qiziqadi. Asardagi har bir hikoya asar qahramonlari tomonidan yoritib beriladi. Asardagi birinchi hikoya Muzaffar tilidan aytiladi. Bu asardagi hech biz obraz kitobxonni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, Orif Oqsoqol obrazi orqali ko'pni ko'rgan donishmand, ziyoli, xalq orasida barchani hurmatini, mehrini birdek qozongan, har qanday ishlarga ham hammani birdek yunaltira oladigan, hammaga o'z maslahatini beradigan, to'g'ri yo'lga boshqaradigan, boshqalarni tashvishini ham o'zining tashvishi deb bilib ularga yordam beradigan inson obrazi yoritib berilgan. Orif Oqsoqolning bir gapi bor. "Belida belbo'gi borlar" bu gapi bilan har bir yigitga kuch, shijoat bag'ishlab ishga jalb qila olgan. Urush qiyinchiliklarida har doim Orif Oqsoqol bilan birgalikda mehnat qilgan, qiyinchiliklarga Orif Oqsoqol bilan birga kurashgan Husan Duma obrazi ham bor.

Husan Duma ota-onasi himoyasidan, ajralgan, hech kimsasiz qolgan masuma qiz Robiyaning boshini silaydi. Unga otasi o'rnida otalik qilib, Rabiya o'talik mehrini beradi.

Asarda qish fasliga ham ta'rif berib o'tilgan. Qish - misli yomon kasal. Kelishi oson, ketish qiyin. [ikki eshik orasi : 2019. 156b].

Adib asardagi Qora amma va Robiya obrazi orqali o'zbek ayollarining qanchalar matonatli, sabrli har qanday qiyinchilikka sabr qila olishi. Ayollarimizning mardligi, jonkuyarligini yaqqol aks ettirgan. Qora amma oltita

farzandni yerga qo'yib, bitta-yu bitta Kimsanni yer-u ko'kka ishonmasdan katta qiladi. Ammo urush bo'lgan sabab barcha o'zbek o'g'lonlari qatori farzandi, Rabiyaning sevgilisi Kimsanni urushga jo'natishadi. Kimsan o'zining yurti, xalqining tinchligi uchun kurashishga urushga ketadi. Ammo Kimsan Husanov dushmanlar qo'lida halok bo'ladi.

Kimsan obrazi asarda kam qatnashgan bo'lsada, ikki bobdagi hikoyasi orqali Kimsanning mard, oliyjanob, jasur Belida belbog'i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. Kimsan vatani uchun jonini fido qiladi.

O'tkir Hoshimov aytganidek, urush faqatgina urushda qatnashgan jangchilarning hayotiga chang solibgina qolmay tinch yashab yurgan minglab masofalar naridagi insonlarini ham sinovdan o'tkazgan urush sababli qanchadan qancha umrlar xazon bo'ldi, qanchadan qancha masuma gullarni quritdi. Biz misol qilib Robiyaning hayotini olishimiz mumkin. Rabiya urush sabab sevganidan ayrildi. „Toğa" deb atagan kishisiga turmushga chiqishga majbur bo'ldi. Robiyani boshiga tushgan bu qiyinchiliklar sabab olgan qalb jarohati umri davomida uni tark etmadi. Robiyani bunday qiyinchiliklarga duch kelishiga qisman Ra'no ham sabab bo'ldi. Aslida, Ra'noni ham aybdor qilib qo'ya olmaymiz. Urush bo'lmaganda edi. Hammasi yaxshi asardagi barcha obrazlar baxtli bo'lgan bo'lishlari mumkin edi. Robiyani otasi ham, sevgan yigiti ham yonida, Orif Oqsoqolning ikkita o'g'li ham uning yonida bo'lishi mumkin edi. Ammo asar mana shunday qiyinchiliklarda qolgan, yaqinlaridan ajralgan obrazlari bilan hech bir kitobxonni o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Adib keltirgan obrazlardan kitobxonlarni o'ziga jalb qila olgan yana bir obraz Muzaffar obrazi keltirilgan. Muzaffar yoshligidan onasidan ayriladi . (Muzaffar onasi Ra'no bo'ladi. Ra'no Shemurod urushga ketganida, Umar Zakunchi sabab Shomurodga xiyonat qilgan bo'ladi.) Shundan keyin Muzaffar otasi bilan birga yashay boshlaydi. Muzaffar hal yosh bo'lgani uchun unga ona mehri kerakligi sabab Qora amma ukasi Shomurodga Robiyani uzatishga qaror qiladi. Bu qarorga kelish Qora ammaga oson bo'lmaganligini quydagi jummlaridan ko'rishimiz mumkin." Qandoq qilay, jonim bolam Onangning gunohidan o't, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo'lgandi Ammo birovga aytish uyoqda tursin o'ylashga ham qo'rqib

yurgandim. Bugun tog'angnikidagi mana bunday" tomoshani" ko'rib... Aqalli shu norasida gudak hurmati onangdan o'pkalama bolajonim".(Ikki eshik orasi. 2019. 41b). Mana shunday "qiyinchiliklar" bilan Qora amma ukasi Shamurodga Robiyani uzatadi. Shunday qilib, Robiya Musaffarga onalik qila boshlaydi. Rabiyaning o'zining Omon ismli o'gli ham bo'ladi...

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, asarda urush qiyinchiliklarda qiynalgan qishloq aholisining hayoti tasvirlangan. Ayollar yosh bolalarini tashlab dalaga ketmon kutarib ishga borishgan. Qiynalib yetishtirgan hosillarni, mahsulotlarni urushda yurgan o'zbek o'g'lonlariga o'zlari yemmasdan berib yuborishgan. Urushda halok bo'lgan farzandlari do'gida ko'ygan ona obrazlarini ko'rib ayollarimizga, onalarimizga qanchalar qiyin bo'lganini ko'zishimiz mumkin.

Bu asarni o'qib shuni tushunib yettimki biz Mustaqil O'zbekistonda tug'ilganimizdan , shu yurt farzandi ekanligimizga shukronalar aytsak arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. 2019. Toshkent.
2. O'tkir Hoshimov. bbc. com. bbc. com. Qaraldi. 22iyul 2024yil.
3. Ikki eshik orasi. O'tkir Hoshimov. Sharq nashiryoti.2013y.
- 4.O'tkir Hoshimov. Ziyouz. Com. Qaraldi. 22iyul 2024y.